



## INGLIZ TILIDA BIZNES SOHASIGA OID FOOT FRAZELOGIZMLARI

**Mamadaliyeva Gulru Ravshanovna**

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Qo‘qon Universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi

email: [guli.ravshnaovna@gmail.com](mailto:guli.ravshnaovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Tilning frazeologik fondi- xalq mentaliteti va madaniyati haqidagi ma'lumotlarning bebaho manbaidir. Ularda xalqning afsonalar, urf-odatlar, marosimlar, ahloq normalari, hulq-atvorlar haqidagi tasavvurlari saqlanadi. Frazeologizmlar olamning lisoniy manzarasini hosil qilishda alohida o‘rin tutadilar. Ular “millat hayotining ko‘zgusi”. Frazeologik birlik (FB)larning ma‘no tabiati til egasining orttirilgan bilimlari, shaxsiy amaliy tajribalari, ushbu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an‘analari bilan chambarchas bog‘langan. FBlar ob‘yektarga olam manzarasi bilan aloqador belgilarni beradilar, butun boshli tasviriy situatsiya (matn)ni nazarda tutadilar, uni baholaydilar va unga munosabatni ifodalaydilar. O‘zining semantikasi bo‘yicha FBlar inson tavsifi va faoliyatiga yo‘nalgan bo‘ladi.

Ingliz idiomalarida *foot/feet* komponentli birliklar barqarorlik, qat‘yilik va aniqlikni anglatadi. Bu birliklar o‘zining semik tarkibiga ko‘ra turli funksional- stilistik vazifalarni bajaradilar. Jumladan, biznes sohasiga oid *foot* komponentli frazeologik birliklar ham alohida o‘rganish ob‘yekti bo‘lib xizmat qiladi. Biz ularni bir necha bo‘limlarga bo‘lib olamiz:

- Shaxsiy yoki korxonada faoliyati



- O‘z fikrini bayon qilish
  - Qaror qabul qilish
1. Shaxsiy yoki korxonaga faoliyatiga oid *foot* komponentli frazeologizmlar:

***To die on one’s feet***- kasodga uchramoq, sinmoq: *The economies of many countries died on the feet as a result of the great recession* (Global krizis natijasida ko‘plab mamalakatlar iqtisodi kasodga uchradi.) *If you don’t create a proper business plan your enterprise will die on its feet.* – Agar ishonchli biznes reja tuzmasangiz, korxonangiz sinadi. ***To fall / land on one’s feet***- qiyin vaziyatdan chiqib ketmoq, suvdan quruq chiqmoq. So‘zma-so‘z tarjimada mushuklarga monanad “yerga oyog‘i bilan tushmoq”, chunki ular doim yerga to‘rtala oyog‘i bilan tushadilar va bu tushish ularga zarar yetkazmaydi: *Sam failed to send the report but he managed to fall on his feet. He shifted the blame to the Internet provider.* – Sem hisobotni jo‘natmadi, lekin u suvdan quruq chiqishga muvaffaq bo‘ldi. U aybni internetga to‘nkadi. *Everybody in the company know that he is guilty of fraud. He won’t land on his feet this time.* – Kompaniyadagi hamma uni firibgarlik qilayotganini biladi. Bu safar u suvdan quruq chiqmaydi. ***To get a foot in*** – biror sohani egallashga, unga kirib olishga harakat qilmoq, biror ishga kirishmoq: *We got a foot in that venture and our sales dropped.* – Biz bu tavakkal ishga kirishdik va savdolarimiz tishib ketdi; *Advertising is not a strong point of yours so you’d better not get your foot in it.* – Reklama sening kuchli tarafing emas, shuning uchun bu ishga kirishma; ***To get off on the right foot*** – (ishni) hayrli, omadli boshlamoq, yaxshi taassurot qoldirmoq. Unga qarama-qarshi ibora esa: ***get off on the wrong foot***- *Our project got off on the right foot and soon we could see the increase in our revenue.* – Bizning loyihamiz omadli boshlandi va biz tez orada foyda ko‘ra boshladik. *The new head of the department got off on the right foot.* - Bo‘limning yangi boshlig‘i boshidanoq yaxshi taassurot qoldirdi. ***To put a foot wrong*** – xatoga yo‘l qo‘ymoq, nimanidir noto‘g‘ri bajarmoq; *Our accountant never puts a foot wrong.* – Bizning xisobchi hech qachon xatoga yo‘l qo‘ymaydi; *You mustn’t put a foot wrong or you’ll be fired.* – Szi xatoga yo‘l



qo‘ymasligingiz kerak, aks holda ishdan bo‘shilasiz; *To put something on foot* – biror narsani yo‘lga qo‘ymoq, harakatga keltirmoq, (ishlab) chiqarmoq; *They will put their new range on products on foot in May.* – Ular yangi mahsulotlar to‘plamini may oyida chiqarishadi; *To put the company on foot we need considerable foreign investments.* – Kompaniyani jonlantirish uchun bizga salmoqli xorijiy sarmoyalar zarur; *To regain one’s feet* – moliyaviy muammolardan so‘ng tiklanmoq, ishlarni joyiga qo‘yib olmoq, qayta oyoqqa turib olmoq; *The sphere of tourism regains its feet after crisis.*– Turizm sohasi krisizdan so‘ng qayta oyoqqa turib olmoqda. Сфера туризма оживляется после кризиса; *The factory can’t pay the workers until the production regains its feet.* – Ishlab chiqarish tiklanib olmaguncha, kompaniya ishchilarga maosh bera olamydi; *To get a foothold* – poydevorga, mustahkam o‘ringa ega bo‘lmoq, xafvsiz positsiyani egallamoq. *Our partners hope to get a foothold in European market.* – Bizning hamkorlar Yevropa bozorida mustahkam poydevorga ega bo‘lishga umid qilmoqdalar. *You should get a foothold in marketing for a successful career.* – Xizmat pillapoyasidan muvaffaqiyatli ko‘tarilish uchun senga marketing sohasida mustahkam o‘rnashib olishing zarur bo‘ladi; *footing the bill*- hisobni to‘lamoq: *Who is going to foot the bill for this mistake; us or the client?*- Kim hisobni to‘laydi, bizmi yoki mijozmi?; *to get a foot in the door*- keyinchalik yaxshiroq lavozimga o‘tirish maqsadida tashkilotga/biznesga kirib olmoq: *I took the job at Linderhoffs to get a foot in the door, even though it wasn’t well paid*- Yaxshi to‘lamasalarda, Linderhofga ishga kirib oldim.

## 2. Shaxsiy fikr bildirishga oid *foot* komponentli frazeologizmlar:

*With both feet* – qat’iyan, to‘laligicha (biror narsani qo‘llab-quvvatlamok yoki qarshi chiqimok). *We support your idea with both feet as it’s the best alternative for us.* – Biz sizning fikringizni to‘laligicha qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki u biz uchun eng yaxshi tanlov. *I am both feet against the proposal. It will cost us too much.* – Men bu taklifga qat’iyan qarshiman. U bizga juda qimmatga tushadi. *To bring somebody to feet* – kimnidir o‘rnidan turishga, ko‘tarilishga majbur qilmoq (javob berish uchun va x.k. Auditoriya



haqida gap ketganda olqish, hayrihohlik, qo'llab-quvvatlash sifatida o'rnidan turib olqishlash. *The appearance of the CEO brought the audience to feet.* – Bosh direktorning paydo bo'lishi zalni o'rnidan turishga majbur qildi. *To vote with one's feet* – “oyoq bilan ovoz bermoq”, (norozilik belgisi sifatida) tark etmoq, chiqib ketmoq, o'z noroziligini ketish, chiqib ketish va x.k.lar orqali bildirimoq. *The meeting ended when the dissatisfied sales representatives voted with their feet.* – Norozi savdo vakillari zalni tark etishganida majlis yakunlandi. *To vote with your feet is not an effective way of dealing with problems.* – Ketish- muammolarni yechishning unchalik ham to'g'ri yo'li emas. *To put your foot in it (in your mouth)* – ehtiyotsizlik bilan gapirmoq, hafa qilib qo'ymoq, o'zi bilmagan holda birovning izzat nafsiga tegib qo'ymoq, ehtiyotsizlik bilan aralashmoq. *You really put your foot in your mouth with Mr Yamomoto. You have to learn more about the Japanese culture.* – Siz janob Yamomotoni hafa qildingiz. Siz yapon madaniyatini o'rganishingiz zarur. *He shouldn't have put his foot in it. We can lose the contract because of his silly remark.* – U aralashmasligi kerak edi. Uning ahmoqona gaplarini deb biz kontraktdan quruq qolamiz. *To shoot yourself in the foot* – biror ahmoqona yoki nojo'ya gap gapirib o'ziga tashvish orttirmoq. *Tom really shot himself in the foot when he said that the chief's plan was rubbish.* – Tom boshliqning rejasi safсата ekanligini aytib o'z boshiga tashvish orttirdi. *I said that the head of my department was incompetent and shot myself in the foot.* – Men bo'lim boshligi layoqatsiz odam deb o'zimga tashvish orttirdim. **Better the foot slip than the tongue** – Tiling sirpanganidan oyog'ing sirpangani yaxshi (Aytilgan gap-otilgan o'q).

### 3. Qaror qabul qilishga oid *foot* komponentli frazeologizmlar:

*To put one's foot down* – mustahkam pozitsiyani egallamoq, qat'iy qarorga kelmoq, qat'iy qarshilik qilmoq. *The director put his foot down and announced his decision to sell the company.* – Direktor qat'iy qarorga keldi va kompaniyani sotish haqidagi fikrini hammaga e'lon qildi. *To think on one's feet* – tezkor fikr qilmoq, reaksiya bildirmoq, darhol javob qilmoq yoki bajarmoq, yo'l-yo'lakay bajarmoq. *To be a good negotiator you*



*have to be able to think on your feet.* – Muzokaralarni muvaffaqiyatli olib borish uchun tezlikda javob qaytarishni bilish kerak. *I will improvise a speech at the annual conference but I'm bad at thinking on my feet.* – Yillik konferensiyada tayyorgarliksiz chiqish qilaman. Lekin men tayyorgarliksiz gapirishni uddalay olmayman. ***To get cold feet*** – qabul qilingan qarorning to'g'riligiga shubha qilmoq, tadbir oldidan jur'atsizlik va qo'rqqoqlik qilib fikridan qaytmoq. *We arranged a meeting but evidently Max got cold feet and cancelled the meeting*– Biz ushrashishga kelishgandik lekin ko'rinib turibdiki, Maks fikridan qaytdi va uchrashuvni bekor qildi. *I wanted to protest but at the last moment I got cold feet and hold my tongue.* – Men o'z noroziligimni bildirmoqchi edim, lekin jur'atim yetmadi va tilimni tiydim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В.А, Лингвокультурология. Издательский центр «Академия», 2001, 183 с
2. Черданцева Т. З. Идиоматика и культура (постановка проблемы) // Вопросы языкознания. - 1996. - № 1
3. Ухтомский А.В. Английские фразеологизмы в устной речи. М, URSS.-2017. 168 с.
4. Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология. -М: Флинта: Наука, 2009.-349 с.
5. Farlex Dictionary of Idioms. Farlex International, 2017. 2591 p.
6. Felicity O'Dell. English idioms in use. CUP, 2017. -183 p.